

**OLIY TA'LIM MUASSASLARI TALABALARIDA FUQOROLIK
TARBIYASINI RIVOJLANTIRISH**

O.F.Hamrayeva

FDU o'qituvchisi

Nozimova Dilfuza Jahongir qizi

Geografiya yo'nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Fuqarolik tarbiyasi nima ekanligi va u fuqarolar uchun qanchalik kerakligi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Fuqarolik tarbiyasi jamiyatda yashayotgan shaxslarning o'z huquq va burchlarini bilishi, tushunishi va amalda qo'llashi uchun juda muhimdir. Shunday ekan ushbu maqola o'qivchilar uchun albatta foydali bo'ladi.*

Kalit so'zlar: *Fuqarolik, huquq va erkinliklar, huquqiy tarbiya, Konstitutsiya, yoshlar .*

Mustaqil O'zbekiston Respublikasida shakllanayotgan milliy istiqlol g'oyalari fuqarolarni Respublika Konstitutsiyasida e'tirof etilgan insonparvar, demokratik, huquqiy davlat va huquqiy jamiyatni barpo etishdekezgu maqsad atrofida birlashtirishga xizmat qiladi. Har bir fuqaroning ijtimoiy, siyosiy, huquqiy faolligini yuzaga keltirish, huquqiy madaniyatini qaror toptirish fuqarolik jamiyatining asosiy talabi sanaladi. Fuqarolik tarbiyasi quyidagilarga e'tibor qaratishi lozim. 1. Huquq va erkinliklar-Fuqarolik tarbiyasi insonga o'zining asosiy huquq va erkinliklarini o'rganish va himoya qilishda yordam berishi kerak. Bu huquqlarga so'z erkinligi, fikr erkinligi, e'tiqod erkinligi, tenglik,adolatlilik sudlov huquqi va shaxsiy daxlsizlik kiradi. 2. Demokratiya-Fuqarolik tarbiyasi demokratik qadriyatlarni o'rgatishi, demokratik jarayonlarda shaxslarning ishtirokini rag'banlantirishi kerak. Bu saylovlarda qatnashish, ovoz berish, nodavlat tashkilotlatiga a'zo bo'lism, norozilik bildirish huquqi kabi masalalar kiradi. 3. Majburiyatlar-Fuqarolik tarbiyasi shaxsning jamiyatdagi mas'uliyatini tushunishiga yordam berishi kerak. Bu majburiyatlarga soliq to'lash, atrof-muhitni muhofaza qilish, yo'l-harakat qoidalariga rioya qilish, inson huquqlarini hurmat qilish va jamiyatdagi boshqa shaxslarning huquqlarini himoya qilish kiradi. 4. Adolat-Fuqarolik tarbiyasi insonlarga adolat tushunchasini tushunishga yordam berishi kerak. Bunga qonunning teng qo'llanilishi, adolatlilik sudlov, inson huquqlari va qonun ustuvorligi kabi masalalar kiradi. Shu sabablarga ko'ra fuqarolik tarbiyasi insonning jamiyatda yanada ongli, mas'uliyatli va erkin bo'lishiga ko'maklashadi va bu orqali yanada adolatlilik, demokratik va barqaror jami

yat barpo etishga hissa qo'shadi. Jamiyat tomonidan qonunchilik yo'li bilan belgilangan talablar fuqaro xulqini baholash, xatti-harakatlari mohiyatini yahlil qilish uchun mezon bo'lib xizmat qiladi ana shu talablarga muvofiq fuqaroning xulq-atvoridagi ayrim ko'rinishlar, harakatlaryoki odatlar ma'qullanadi yoki aksincha qoralanadi. Fuqarolik tarbiyasi bu fuqarolik tushunchasining mohiyatini anglatish orqali o'quvchilarda yuksak darajadagi fuqarolik madaniyatini shakllantirish, ularni xalq, vatan, jamiyat manfaatlari yo'lida kurashuvchi fuqarolar etib tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon. Fuqarolik tarbiyasining markaziy obyekti fuqarolik sanaladi. Fuqaro-fuqaroligi huquqiy jihatdan e'tirof etilgan hamda muayyan jamiyat, davlat a'zosi bo'lgan shaxsdir. Fuqarolik esa huquqiy va axloqiy me'yorlarga ongli rioxva etish, ma'lum huquqlardan foydalanish hamda burchlarni bajarishga mas'ullik bilan yondashuv, mehnat jarayoni va jamoadagi faollik, ma'naviy yetuklik asosida muayyan davlatga mansublikdir. Huquqiy tarbiya-o'quvchilar o'rtasida fuqarolik tarbiyasini tashkil etishda o'ziga xos o'rin tutadi. 1993-yil mart oyida e'lon qilingan "Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar konsepsiysi"da qayd etilganidek, "Huquqiy tarbiyaning asosiy maqsad va vazifalari Konstitutsiyani, davlat haqidagi ta'limotni, chuinonchi, fuqarolik, oila, mehnat, xo'jalik, ma'muriy, nafaqa, sud ishlarini yuritish va boshqarish huquqlarining ma'nosini tushuntirishdan, bolalarni davlat qununlarini yuksak darajada hurmat qilish, tartib va intizomni buzuvchilarga nisbatan murosasizlik ruhida tarbiyalash, Xalqaro tashkilotlar faoliyati haqida o'quvchilarning umumiylashtirishidan iboratdir". Hozirgi yillarda O'zbekiston hududida fuqarolik tarbiyasi juda ham tuzatishlarga muhtojdir. Nima sababdan deganda o'z fuqarolik huquqlarini tushunmaydigan, bilmaydigan oilalar ko'payib bormoqda. Shu sababli fuqarolik tarbiyasi nima ekanligini jamiyatning kop sonli qismi bilishmaydi va hech qanday tushunchalarga ham ega emaslar. E'tibor berilgan bo'lsa ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda davlat siyosatida birinchi o'rinda fuqarolik tarbiyasi, vatanni sevish, jamiyatni hurmat qilish kabi g'oyalar ustuvor hisoblanadi. Misol uchun Yaponianing judaham tezlikda taraqqiy etganiga nazr tashlaydigan bo'lsak ularda xalqning juda jipslashib birikkaniga, xalq o'z vatanini qadrlashiga va fuqarolik tarbiyasi yuqori cho'qqidaligiga guvoh bo'lamiz. Albatta birinchi navbatda oilalarni o'zgartirish kerak, Chunki, oila o'zgarsagina jamiyat ham o'zgaradi. Farzand tarbiyasini birinchi o'rinda oiladan oladi. Shunday ekan har bir fuqaro islohot qilishni o'zidan boshlamog'i kerak. Fuqarolik tarbiyasini kamol toptirishda yoshlari, fuqarolar o'rtasida vatanparvarlik hissini uyg'otish va ayniqsa bu ishni bolalakdan boshlab singdirib borish maqsadga muvofiqdir. Fuqarolik tarbiyasini tashkil etish uchun ma'lum shart -sharoitlarning mavjudligi taqozo etila

di : O'quv yurtida tashkil etilayotgan ta'limgan -tarbiya jarayoni yuksak darajada uyushtirilishi kerak; Fuqarolik tarbiyasini tashkil etish jarayonining muvaffaqiyati o'qituvchi va o'quvchilar jamosining saviyasiga bog'liq; tarbiyaviy ishning rejali, uzlusiz, tizimli bo'lishiga erishish; oila,maktab vamahalla o'rtaida o'zaro hamkorlikning yuzaga kelishi fuqarolik tarbiyasining muvaffaqiyatini ta'minlaydi; o'quvchilarning axloqiy va huquqiy me'yorlar, umumiyligini tartibga qat'iy rivoj etishga o'rganish, zimmasidagi birinchi to'laqonli ado etishlariga qaratish. Fuqarolik tarbiyasini tashkil etishda suhbat, munozara, ma'ruza, bahslardan foydalanish, mashq, test, anketa savollariga javoblar olish kutilgan natijani qo'lgan kiritishga imkon beradi. Vatanparvarlik shaxsning o'zi mansub bo'lgan millat, tug'ilib o'sgan vatani tarixidan g'ururlanishi, buguni to'g'risida qayg'urishi hamda uning porloq istiqboliga bo'lgan ishonchini ifoda etuvchi yuksak insoniy fazilat hisoblanadi. Vatanparvar shaxs qiyofasida quyidagi sifatlar namoyon bo'ladi : Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat, unga bo'lgan sadoqat. O'zi mansub bo'lgan millat o'tmishini, urf-odatlari, an'analari va qadriyatlariga sodiqlik. Vatan va millat tarixidan g'ururlanish. Yurtning moddiy, shuningdek, millat tomonidan yaratilgan ma'nnaviy boyliklarini asrash, ularni ko'paytirish borasida g'amxo'rlik qilish. Vatan ravnaqi va millat taraqqiyoti yo'lida mehnat qilish. Vatan ozodligi va millat erkiga qilnayotgan har qanday tahdidiga qarshi kurashish. Vatan millat obro'i, sha'ni, or-nomusini himoya qilish. Vatan ravnaqi va millat taraqqiyotiga nisbatan ishonchga ega bo'lishi. Baynalmilallik o'zga millat va elatlarning haq-huquqlari, erki, urf-odatlari, an'analari, turmush tarzi, tili hamda vijdon erkinligini hurmat qilish, ularning manfaatlariga ziyon yetkazilmaslikni ifoda etuvchi shaxsga xos ma'nnaviy -axloqiy fazilatlardan biridir. Huquqiy ta'limgan-tarbiya uzlusiz jarayon bo'lib, yoshlikdan boshlab berib borilishi lozim. Bolalar oilada, maktabgacha ta'limgan muassasidayoq xulq-atvor qoidalaridan xabardor bo'lishi, ma'nnaviy va ba'zi huquqiy normalar to'g'risida boshlang'ich tushunchalar olishi, kelgusida bu bilimlar kengaytirilishi va chuqurlashtirilishi aniq ifodalangan huquqiy xususiyat kasb etishi zarur. Shuning uchun 2000-yildan boshlab O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'limgan muassasalarini va umumiyligini o'rta ta'limgan turlarida bosqichma- bosqich huquq saboqlari, huquqiy bilim va tarbiya berib borilishi yo'lda qo'yildi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki Tarbiyaning texnologiyaviyligi ta'limgan muassasalarida tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish va unga erishishga sharoit yaratadi, nazariy asoslangan uzlusiz davom etadigan tarbiyalash jarayonining shakllari; metodlari, usullari va vositalarini o'qituvchi to'g'ri tanlab natijalarga erishishini ta'minlaydi. U ilmiy modellashtirish (loyihalashtirish) asosida amalga oshir

iladi, modellashtirishda tarbiyaviy maqsadlar bir xil ma'noda beriladi hamda o'qituvchi tomonidan insonning shaxsiy xususiyatlari va sifatlarini rivojlantirishning muayyan bosqichlarini obyektiv ravishda o'lchash va baholash imkoniyatlarini yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hamrayeva, O. F. Q. (2023). OLIY TA'LIM MUASSASASI TALABALARINI KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING AYRIM JIHATLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(1), 537-544.
2. Hamroyeva, O. F. (2023). OLIY TA'LIM MUASSASASI TALABALARINI KASBIY-KOMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(4), 985-991.
3. Abdixakimovich, X. K. (2023). PEDACOGIK HAMKORLIK ASOSIDA BO'LAJAK OFITSERLARDA FUQAROLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH. Science and innovation, 2(Special Issue 12), 538-541.
4. Ergasheva, N. M. (2023). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI RAHBARLARINING KOGNITIV KOMPETENTLIGI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(11), 697-702.